Qiyos uchun tanlangan mamlakatlar ikki mezon asosida ajratildi: (a) O‘zbekiston bilan tuzilmaviy o‘xshashligi (MDH davlatlari: Qozog‘iston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi); (b) islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi (OECD a’zo mamlakatlari: Buyuk Britaniya, Norvegiya, Singapur, Yangi Zelandiya). Tadqiqot doirasi 1990–2026-yillarni qamrab oladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

DIKni isloh qilishning xorijiy modellari: OECD tajribasi

OECD (2024) “Davlat korxonalarining mulkchiligi va boshqaruvi” majmuasiga binoan, DIK sektorini boshqarishda to‘rtta asosiy institutsional model ajratiladi: markazlashtirilgan (Norvegiya, Finlyandiya), muvofiqlashtiruvchi agentlik (Fransiya, Italiya), ikki tarmoqli (Singapur) va alohida tarmoqli model. Quyidagi

jadvalda (1-jadval) ushbu modellarning asosiy xususiyatlari qiyosiy tarzda keltirilgan (1-jadval).

1-jadval. OECD a'zo mamlakatlari va Singapurning DIK islohoti modellari

| Mamlakat | Institutsional model | Asosiy mexanizm | Natija | O'ziga xos xususiyati |
|---|---|---|---|---|
| **Buyuk Britaniya** | Alohida tarmoqli | Public offering, ochiq auksion, golden share | 1979–1997 y.: 60 dan ortiq yirik korxona xususiylashtirildi; YAIMdagi DIK ulushi 12%dan 2%ga tushdi | Birinchi "halq IPO"si — British Telecom (1984), 96 milliard funt sterling kapitallashtirish |
| **Norvegiya** | Markazlashtirilgan | Savdo-sanoat vazirligi huzuridagi "Ownership Department" | 70 ta yirik DIK tizimli boshqarish; strategik sektorlar (neft, baliq ovlash) saqlangan | Norvegiya modeli — davlat strategik va tijoriy maqsadlarni shaffof ajratib qo'ygani bilan mashhur |
| **Fransiya** | Muvofiqlashtiruvchi agentlik (APE) | Fransuz davlat aktivlari agentligi — Agence des participations de l'État | 80 milliard yevro qiymatidagi aktivlar, davlat ulushi yirik sanoat gigantlarida saqlangan | Strategik korxonalar (EDF, Renault) va bozor shartlari o'rtasida muvozanat saqlash |
| **Singapur** | Ikki tarmoqli (Temasek) | Suveren xolding — Temasek Holdings | $382 milliard aktivlar boshqariladi; 18% yillik o'rtacha daromadlilik | Xolding etaloni — davlat tijoriy vazifalarni bosib o'tmasligi uchun professional boshqaruv tatbiq etilgan |
| **Yangi Zelandiya** | Korporatizatsiya modeli | State-Owned Enterprises Act 1986 | DIK soni 1986-y.da 50tadan 2020-y.ga 18taga qisqardi | Korporatizatsiyadan xususiylashtirishga bosqichli o'tish modeli |

***Manba:*** *OECD (2024) "Ownership and Governance of State-Owned Enterprises 2024"; Cornell International Law Journal (2017); muallif tomonidan tuzildi.*

Yuqoridagi jadvaldan xulosa qilish mumkinki, OECD a'zo mamlakatlaridagi islohotlar uchta umumiy tamoyilga asoslanadi: (1) tartibga solish va tijoriy funksiyalarni institutsional ajratish; (2) raqobat neytralligini ta'minlash; (3) korporativ boshqaruvda professionallikni kafolatlash. Singapurning Temasek modeli aynan Qozog'istonning Samruk-Qazina xoldingi uchun asos bo'lib xizmat qilgan (Outpost Eurasia, 2024).

MDH davlatlari tajribasi: Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston Respublikasi

MDH davlatlari ichida DIK islohoti bo'yicha eng izchil tajribani Qozog'iston Respublikasi namoyon etgan. 2008-yilda tashkil etilgan "Samruk-Qazina" milliy farovonlik jamg'armasi Singapur Temasek modeli asosida qurilgan bo'lib, u mamlakat YAIMining 7,5–14 foizini tashkil qilmoqda (Samruk-Kazyna Annual Report, 2023; OECD, 2024). 2021–2025-yillarga mo'ljallangan "Keng qamrovli xususiylashtirish rejasi" doirasida 675 ta davlat mulki obyekti hamda kvazidavlat sektorining 262 ta kompaniyasi xususiylashtirish uchun ajratilgan (Primeminister.kz, 2022) [25].

Rossiya Federatsiyasida davlat aktivlarini boshqarish Rossiya Federatsiyasi Davlat mulkini boshqarish federal agentligi (Росимущество) orqali amalga oshirib kelinmoqda. 2024-yil holatiga Rossiya YAIMida davlat sektorining ulushi taxminan 50–60% atrofida saqlanib qolgani IMF (2023) va EBRD (Transition Report 2020-21) ma'lumotlari bilan tasdiqlanadi. Qozog'iston va Rossiya tajribasining taqqoslanishi quyidagi jadvalda (2-jadval) ko'rsatilgan (2-jadval).

2-jadval. MDH davlatlari va O'zbekiston DIK sektorining qiyosiy ko'rsatkichlari (2024–2025-y.)

| Ko'rsatkich | Qozog'iston Respublikasi | Rossiya Federatsiyasi | O'zbekiston Respublikasi |
|---|---|---|---|
| DIKning iqtisodiyotdagi ulushi | ≈30% (2024-y.) | 50–60% (2024-y.) | 55%dan 42%ga kamaydi (2017–2024) |
| Boshqaruv modeli | Markazlashtirilgan xolding (Samruk-Qazina) | Ko'p qutbli (Rosimushchestvo, VEB. RF, Rostex) | Aralash model (UzSAMA + sohalik vakolatlar) |
| Strategik hujjat | Keng qamrovli xususiylashtirish rejasi 2021–2025 | Prognoz dasturi va davlat aktivlarini boshqarish strategiyasi 2024 | Xususiylashtirish strategiyasi 2021–2025; PF-70 (2025-y.) |

| Ko'rsatkich | Qozog'iston Respublikasi | Rossiya Federatsiyasi | O'zbekiston Respublikasi |
|---|---|---|---|
| Yirik korxonalarni IPO/ SPO | Air Astana (LSE, 2024); KazMunayGaz, KEGOC, Kazatomprom | Sovkomflot, VTB, ALROSA (2007–2017); 2022 y.dan keyin sekinlashgan | "Toshkent tovar xomashyo birjasi" AJ (2024 y. "Xalq IPO"si) |
| Yangi DIK tashkil etishga cheklovlar | Prezident Toqayev Farmoni, 2023-y. – vakolat mezonlari belgilangan | Alohida institutsional cheklovlar yo'q | 2030-y.gacha moratoriy joriy etilgan (PF-70) |
| Xususiylashtirishdan tushum (2024-y.) | ≈$2,1 milliard | ≈$1,5 milliard | ≈$1,3 milliard (47 trln so'm 2021–2024-y.y. bo'yicha) |

***Manba:*** *OECD (2024); IMF Country Report No. 25/144 (2025); Outpost Eurasia (2024); Avesta Investment Group (2025); UzSAMA (2024); muallif tomonidan tuzildi.*

Qozog'iston tajribasining o'ziga xosligi shundaki, u markazlashtirilgan xolding (Samruk-Qazina) orqali DIKni tizimli boshqarishga intilmoqda, biroq ushbu model ham tanqidlardan xoli emas. Jumladan, Outpost Eurasia (2024) tahliliga ko'ra, Samruk-Qazina o'z portfelidagi korxonalarni kross-subsidiyalash yo'li bilan bozor signallarini buzuvchi omilga aylanib qolganligi, tashqi qarzining $12,5 milliardgacha cheklanishi Prezident Toqayev tomonidan fondni jiddiy isloh qilish zarurati tan olinishiga sabab bo'lganligi qayd etiladi.

***O'zbekiston Respublikasida DIKni optimallashtirish: 2017–2026-yillar dinamikasi***

O'zbekiston Respublikasida 2017-yildan boshlab davlat sektorini isloh qilish bo'yicha yirik hajmdagi qonunchilik va institutsional chora-tadbirlar amalga oshirildi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 27-oktyabrdagi "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6096-son[6]li Farmonida birinchi marta katta xususiylashtirish dasturi qabul qilindi. Shu bilan birga, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi 166-son qarori bilan tasdiqlangan 2021–2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasida strategik maqsad sifatida 2025-yilgacha DIK sonini 75 foizga qisqartirish belgilangan edi[7].

Keyinchalik 2024-yil 14-fevralda "Davlat mulkini xususiylashtirish to'g'risida"gi O'RQ-907-son[8]li Qonun qabul qilindi, u xususiylashtirish qoidalarini birlashtirdi. 2025-yil 21-aprelda qabul qilingan Prezidentning PF-70-son[9]li Farmoni hamda PQ-145-son[10]li qarori bilan yangi, tizimli bosqich boshlandi. O'zbekiston Respublikasida davlat sektorini isloh qilishning asosiy miqdoriy ko'rsatkichlari 3-jadvalda keltirilgan (3-jadval).

3-jadval. O'zbekiston Respublikasida davlat sektorini optimallashtirishning asosiy ko'rsatkichlari (2017–2026-yy)

| Ko'rsatkich | 2017-y. | 2024-y. | 2025–2026-y.y. rejasi |
|---|---|---|---|
| DIKlar soni | ≈3 000 ta | 1 988 ta (2026-yil 1-yanvar) | ≈800 tagacha qisqartirish rejada |
| Davlatning 20%dan yuqori ulushiga ega DIKlar soni | ≈2 200 ta | 1 866 ta (2026-yil 1-yanvar) | Strategik sektorlar bilan chegaralash |
| DIKning iqtisodiyotdagi ulushi | ≈55% | ≈42% | 25–30%gacha kamaytirish |
| Xususiylashtirishdan jami tushum (trln so'm) | ≈1,6 | ≈47 (2021–2024-y.y.) | 30 trln so'm (2025-y.); 10 trln so'm budjetga |
| Xususiylashtirish dasturiga kiritilgan korxonalar | – | 725 ta (Xususiylashtirish dasturlari) | – |
| Yangi DIK tashkil etish | Cheklovsiz | Cheklangan | 2030-yilgacha moratoriy |
| Yirik 10 ta DIKning budjet daromadlaridagi ulushi | Ma'lumot yo'q | ≈30% | Barqaror tendensiya |
| Imtiyozli soliq-bojxona subsidiyalariga ega DIK soni | Ma'lumot yo'q | ≈900 ta (2023-y.) | Bosqichma-bosqich bekor qilish |

6 https://lex.uz/ru/docs/-5068824
7 https://lex.uz/uz/docs/-5348948
8 https://lex.uz/ru/docs/-6800515
9 https://lex.uz/uz/docs/-7488166
10 https://lex.uz/ru/docs/-7488164

| Ko‘rsatkich | 2017-y. | 2024-y. | 2025–2026-y.y. rejasi |
|---|---|---|---|
| Davlat banklarining DIKga yo‘naltirilgan imtiyozli kreditlari (bank portfelidan) | 56% (2018-y.) | 29% (2023-y.) | 15%gacha kamaytirish |

*Manba: UzSAMA (2024); IMF Country Report No. 25/144 (2025); World Bank (2024); U.S. Department of State (2025); Avesta Investment Group (2025); Lexology (2025); CIPE (2023); muallif tomonidan tuzildi.*

Jadval ma’lumotlari asosida quyidagi tendensiyalarni aniqlash mumkin: birinchidan, 2017–2024 yillarda DIK sonining ikki barobardan ortiqqa qisqarishi kuzatiladi; ikkinchidan, davlat banklarining DIKga imtiyozli kreditlash ulushi qariyb yarmiga qisqargan; uchinchidan, xususiylashtirishdan tushum avvalgi 10 yillikka nisbatan 30 barobarga o‘sgan. Shu bilan birga, davlat sektorining iqtisodiyotdagi umumiy ulushi (≈42%) hozircha o‘rta-daromadli mamlakatlar o‘rtachasi (≈25–30%)dan yuqoriligicha qolmoqda (Yale Journal, 2026) [31].

DIK sektorining budjet xarajatlariga ta’siri

Xalqaro valyuta jamg‘armasining 2024 yil Article IV missiyasi bayonotiga ko‘ra, O‘zbekistonning konsolidatsiyalashgan budjet defitsiti 2024-yilda YAIMning 3,2 foizini, 2025-yilda 2,1 foizini tashkil etgan. Defitsitning qisqarishi ko‘p jihatdan energiya subsidiyalarini optimallashtirish hamda DIKga yo‘naltirilgan kreditlarning kamaytirilishi bilan izohlanadi (IMF, 2026). Shu bilan birga, IMF (2025) hisobotida davlat sektorining (DIK va davlat banklari) yashirin va shartli majburiyatlari fiskal xatarlarning asosiy manbai bo‘lib qolayotganligi qayd etiladi.

Yale Journal of International Affairs (2026) tadqiqotida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, 2022-yilda O‘zbekistonda davlat xarajatlari (DIKlar tomonidan amalga oshirilgan xarajatlar bilan birgalikda) YAIMning 40 foizdan ortig‘ini tashkil etgan bo‘lib, bu o‘rta-daromadli mamlakatlar o‘rtachasidan ancha yuqori. Ushbu holatning sabablaridan biri – takrorlanuvchi funksiyalar va eskirgan institutsional tuzilmalar bilan bog‘liq (4-jadval).

4-jadval. DIKni optimallashtirishning budjet xarajatlariga kutilayotgan ta’siri (O‘zbekiston, 2025–2030 y.y. prognoz)

| Samaradorlik kanallari | 2024-y. (amalda) | 2026-y. (prognoz) | 2030-y. (maqsad) |
|---|---|---|---|
| **DIKlar uchun imtiyozli kreditlar (trln so‘m)** | ≈45 | ≈30 | ≤20 |
| **Davlat subsidiyalari (trln so‘m)** | 28,3 | 30,2 | Qayta maqsadlashtiriladi |
| **Tugatilayotgan DIKlarni saqlash xarajatlari (mlrd so‘m)** | ≈3 200 | ≈1 800 | 0 (to‘liq tugatiladi) |
| **Xususiylashtirishdan budjet daromadi (trln so‘m)** | ≈8,5 | 10–12 | ≥15 yillik o‘rtacha |
| **Budjet defitsiti (YAIMga nisbatan, %)** | 3,2% | 3,0% | ≤2,5% |
| **Davlat-xususiy sheriklik (PPP) portfeli (mlrd $)** | 31 | ≈35 | Shartli majburiyatlar nazoratda |

*Manba: IMF Country Report 25/144 (2025); IMF 2026 Article IV Concluding Statement; Daryo News (2025); O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi (2025); muallif tomonidan tuzildi.*

Takroriy funksiyalar muammosi va davlat muassasalarini tugatish zarurati

Abdullayev (Abdullaev, 2020) tadqiqotida aniqlanganidek, O‘zbekiston davlat sektorining o‘ziga xos muammosi – sobiq Ittifoq davridagi soha vazirliklari o‘rniga tashkil etilgan xolding, konsern va uyushmalar o‘z ichida quyidagilarni birgalikda jamlovchi: (a) siyosat ishlab chiquvchi funksiya; (b) tartibga solish funksiyasi; (v) tijoriy-xo‘jalik funksiya. Ushbu uchta funksiyaning bitta institut tomonidan bajarilishi OECD korporativ boshqaruv tamoyillarining asosiy prinsipi bo‘lmish “raqobat neytralligi” va “funksional ajratish” prinsiplarini buzadi.

Jahon bankining (2024) O‘zbekiston bo‘yicha Razvitiy Siyosati Operatsiyasi (DPO) tadqiqotida qayd etilishicha, 2019-yildan boshlab 1 200 dan ortiq kichik va o‘rta DIK sotilgan bo‘lsada, takroriy funksiyali yirik DIKlar (masalan, ba’zi sektor-xoldinglar, tijoriy xizmat ko‘rsatuvchi davlat korxonalari) tuzilmaviy islohotdan o‘tkazilmagan. Bu esa budjetga yillik 3 trillion so‘mdan ortiq qo‘shimcha yuk tug‘dirmoqda.

5-jadvalda takroriy funksiyali DIKlarni tugatish bo‘yicha xalqaro tajribalar hamda ularning O‘zbekistonga tatbiq etish imkoniyatlari ko‘rsatilgan (5-jadval) .

5-jadval. Takroriy funksiyali DIKlarni tugatishning xalqaro tajribasi va O‘zbekiston uchun tavsiyalar

| Mamlakat/tajriba | Qo‘llanilgan vosita | Natija | O‘zbekistonga tatbiq etish |
|---|---|---|---|
| Yangi Zelandiya (1986–1988) | Sektor bo‘yicha funksional taftish va takroriy vakolatlarni majburiy bekor qilish | Davlat xarajatlari YAIMning 7%ga kamaytirildi | Sohalar bo‘yicha vazirliklar va davlat konsernlarining vakolatlarini aniqlashtirish |
| **Buyuk Britaniya (1980-90-y.y.)** | Next Steps Initiative – davlat funksiyalarini ajratish va Executive Agencies joriy qilish | 130 dan ortiq agentlik tashkil etildi, xarajatlar 5%ga kamaydi | Tijoriy va ma’muriy funksiyalarni institutsional ajratish |
| **Estoniya, Litva, Latviya (2000-y.y.)** | Kichik hajmli DIKlarni to‘liq xususiylashtirish yoki tugatish | DIK soni 80%ga qisqardi | Toshkent shahri tajribasi (102 ta samarasiz bino auksion asosida sotilgan) |
| **Qozog‘iston (2023–2025)** | Davlatning 0–25% ulushidagi korxonalarni majburiy xususiylashtirish | Samruk-Qazina 17 ta aktivni sotdi va 3 tasini tugatdi (2022-y.) | UzSAMA portfelidagi “aktiv bo‘lmagan” korxonalarni bosqichma-bosqich tugatish |
| **OECD umumiy tavsiyalari** | Active ownership policy + sunset clauses (amal qilish muddatini belgilash) | Yangi DIK yaratilishi oldi olinadi | 2030-y.gacha moratoriy – amalda tatbiq etilmoqda |

*Manba: OECD (2024); World Bank (2014); EBRD Transition Report (2020-21); Outpost Eurasia (2024); UzSAMA (2024); muallif tomonidan tuzildi.*

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari bir qator muhim ilmiy-amaliy xulosalarni shakllantirishga imkon beradi. Birinchidan, miqdoriy ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston Respublikasida 2017–2024-yillarda amalga oshirilgan islohotlar ko‘lami va jadalligi tarixiy jihatdan misli ko‘rilmagan darajada. O‘tgan 7 yil mobaynida DIK soni ikki barobarga, davlatning iqtisodiyotdagi ulushi 13 foizga, davlat banklarining DIKga yo‘naltirilgan imtiyozli kreditlari bank portfelidagi o‘rniga ko‘ra 56 foizdan 29 foizga qisqarishi – Sharqiy Yevropa o‘tish iqtisodiyotlarining 1990-yillardagi tajribasiga o‘xshash dinamikadir (EBRD, 2021) [7].

Ikkinchidan, OECD a’zo mamlakatlari va Qozog‘iston tajribasi tahlili shuni tasdiqladiki, DIK islohotining muvaffaqiyati uchta omilga bog‘liq: (1) islohotning siyosiy izchilligi; (2) shaffof institutsional tuzilmalar (masalan, agentlik yoki xolding); (3) raqobat siyosati institutlarining kuchaytirilishi. O‘zbekistonda 2030-yilgacha moratoriyning joriy etilishi aynan birinchi omil jihatidan jiddiy ilgarilash hisoblansa-da, ikkinchi va uchinchi omillar bo‘yicha qo‘shimcha institutsional ishlar talab etiladi. Jumladan, IMF (2026) bayonotida ham tariflar, shaffof reklama-konkurs muolajalari va korporativ boshqaruv standartlarining takomillashtirilishi zarurligi qayd etiladi.

Uchinchidan, budjet xarajatlarining qisqarishi masalasi tizimli yondashuv asosida hal qilinishi kerak. Quyidagilarga e’tibor qaratilishi zarur: (a) takroriy funksiyalarni institutsional taftish orqali bartaraf etish; (b) to‘lov qobiliyati yo‘q korxonalarni belgilangan tartibda tugatish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan “Iqtisodiy kompleks rahbarlari va barcha davlat korxonalari uchun “2024-yil – tannarxni qisqartirish va samaradorlik yili”[11] deb belgilanishi ayni shu yo‘nalishdagi strategik yondashuvning namunasidir.

To‘rtinchidan, Qozog‘iston va O‘zbekiston tajribasining qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatdiki, markazlashtirilgan xolding modeli (Samruk-Qazina) o‘z afzalliklari bilan birga, uzoq muddatda subsidiyalash va shaffoflik muammolarini keltirib chiqarishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois O‘zbekiston uchun Singapur (Temasek) va Norvegiya modellarining gibrid varianti – ya’ni tijoriy DIKlarni markazlashtirilgan professional boshqaruv xoldingiga o‘tkazish, biroq kross-subsidiyalashni qat’iy taqiqlash – maqbulroq hisoblanishi mumkin.

Beshinchidan, islohotning ijtimoiy o‘lchovi ham ahamiyatlidir. CIPE (2023) tahliliga ko‘ra, DIKlarni xususiylashtirish natijasida oligarxik iqtisodiy tuzilma shakllanishi xatari mavjud. Bunday xatarni neytrallashtirish uchun xalqaro tender usullari, IPO/SPO mexanizmi, shuningdek, olinadigan tushumlarning ijtimoiy yo‘naltirilishini ta’minlash muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston 2025-yilda $2 milliardlik “Uzbekistan National Investment Fund” (UzNIF) tashkil etib, uning boshqaruvini Franklin Templeton kompaniyasiga topshirgani – ushbu yo‘nalishdagi yangi, konseptual qadam hisoblanadi.

Ushbu tadqiqot natijalari asosida quyidagi yakuniy xulosalar shakllantirildi:

11 https://president.uz/oz/lists/view/6971

Birinchidan, OECD va MDH davlatlari tajribasi shuni ko‘rsatdiki, davlat ishtirokidagi korxonalarni optimallashtirish – nafaqat fiskal tejamkorlik vositasi, balki iqtisodiyotning umumiy raqobatbardoshligini oshirishning asosiy strategik mexanizmidir. Bu borada muvaffaqiyatga erishgan davlatlar (Buyuk Britaniya, Singapur, Norvegiya, Yangi Zelandiya) islohotni siyosiy iroda, shaffof institutsional tuzilma hamda professional boshqaruv uchburchagida amalga oshirgan.

Ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasida 2017–2026-yillarda amalga oshirilgan islohotlar tarixiy ahamiyatga ega bo‘lib, DIK sonining ikki barobardan ortiqqa qisqarishi, xususiylashtirish tushumlarining 30 barobarga o‘sishi va davlat sektorining YAIMdagi ulushini kamayishi – tizimli islohotning ijobiy natijasidir. Shunga qaramasdan, davlat sektorining iqtisodiyotdagi ulushi haligacha o‘rta-daromadli mamlakatlar o‘rtachasidan yuqoriligicha qolmoqda, bu esa yanada chuqur islohotlarni talab etadi.

Uchinchidan, tadqiqotdan kelib chiquvchi asosiy yakuniy xulosa shuki,

**davlat ishtirokidagi korxonalar sonini maqsadli qisqartirish, jamiyatda sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish, takrorlanuvchi funksiyalarni tugatish hamda budjet xarajatlarini qisqartirish maqsadida, davlat ishtirokidagi korxonalarni xususiylashtirilishi va belgilangan tartibda tugatilishi – fiskal samaradorlik, investitsion muhit va iqtisodiy o‘sishning ustuvor shartidir.**

Tadqiqot xulosalari asosida quyidagi amaliy tavsiyalar taklif etiladi:

1) Barcha davlat xoldinglari va konsernlarining funksional taftishini o‘tkazish hamda takrorlanuvchi vakolatlarni institutsional tarzda yo‘qotish;

3) Singapur-Norvegiya gibrid modelini joriy qilish – ya’ni tijoriy DIKlarni yagona professional xoldingda jamlash, biroq kross-subsidiyalashni qonunchilik darajasida taqiqlash;

3) Yirik DIKlarni 2026–2030-yillarda xalqaro IPO/SPO orqali xususiylashtirish bo‘yicha yo‘l xaritasini amalga oshirish;

4) DIKlarga yo‘naltirilgan imtiyozli kreditlar va soliq-bojxona subsidiyalarini bosqichma-bosqich, 2030-yilgacha nolgacha kamaytirish;

5) Xususiylashtirish jarayonining oligarxik kulminatsiyasini oldini olish maqsadida tenderlar ochiqligi va UzNIF mexanizmi orqali keng investorlar bazasi shakllantirish;

6) Korporativ boshqaruv kodeksini OECD standartlariga to‘liq muvofiqlashtirish, DIKlar uchun Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS)ni majburiy hisobga olish;

7) DIKlarni optimallashtirish va takroriy funksiyalarni tugatishning 2030-yilgacha mo‘ljallangan milliy strategiyasini ishlab chiqish hamda uni O‘zbekiston-2030 rivojlanish strategiyasiga to‘liq integratsiyalash.

Xulosa qilib aytish mumkinki, O‘zbekiston davlat sektorini tizimli isloh qilish – nafaqat milliy iqtisodiy strategiyaning mavzusi, balki mintaqaviy va global miqyosda o‘rta-daromadli mamlakatlar uchun ahamiyatli tajriba sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu boradagi islohotlar izchilligi va shaffofligi O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha jahon ishlab chiqarish zanjirlarining muhim bo‘g‘iniga aylantirish hamda yuqori o‘rta-daromad mamlakatlar safiga kirish maqsadlariga erishishda strategik omildir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdullaev, U. (2020). State-Owned Enterprises in Uzbekistan: Taking Stock and Some Reform Priorities. ADBI Working Paper 1068. Tokyo: Asian Development Bank Institute. URL: https://www.adb.org/publications/state-owned-enterprises-uzbekistan-taking-stock-reform

2. Alchian, A. A., & Demsetz, H. (1972). Production, Information Costs, and Economic Organization. American Economic Review, 62(5), 777–795.

3. ADB (2022). Privatization of State-Owned Enterprises: A Summary of Experience. Governance Brief No. 047. Manila: Asian Development Bank. URL: https://www.adb.org/sites/default/files/publication/843206/governance-brief-047-privatization-state-owned-enterprises.pdf

4. Avesta Investment Group (2025). New wave of privatization in Uzbekistan – 2025. Tashkent. URL: https://www.avestagroup.com/en/news/243.htm

5. CIPE – Center for International Private Enterprise (2023). Challenges to Democratic Market Reforms in Uzbekistan and the Risks of State Capture from State-Owned Enterprises. URL: https://www.cipe.org/blog/2023/02/21/challenges-to-democratic-market-reforms-in-uzbekistan

6. Daryo News (2025). Uzbekistan to cut social benefits, raise subsidies in 2026 fiscal plan. URL: https://daryo.uz/en/2025/08/03/uzbekistan-to-cut-social-benefits-raise-subsidies-in-2026-fiscal-plan

7. EBRD (2021). Transition Report 2020-21: The State Strikes Back. London: European Bank for Reconstruction and Development.

8. European Commission (2016). State-Owned Enterprises in the EU: Lessons Learnt and Ways Forward in a Post-Crisis Context. Institutional Paper 031. URL: https://economy-finance.ec.europa.eu/system/files/2022-07/ip031_en.pdf

9. Government of the Republic of Uzbekistan (2025). Privatization targets for 2025. Press release. URL:

https://gov.uz/en/news/view/42484

10. IMF – International Monetary Fund (2024). Uzbekistan: Staff Concluding Statement of the 2024 Article IV Mission. URL: https://www.imf.org/en/news/articles/2024/05/14/mcs-uzbekistan-staff-concluding-statement-of-the-2024-article-iv-mission

11. IMF – International Monetary Fund (2025). Uzbekistan: Staff Concluding Statement of the 2025 Article IV Mission. URL: https://www.imf.org/en/news/articles/2025/04/23/mcs-042325-uzbekistan

12. IMF – International Monetary Fund (2025). IMF Country Report No. 25/144 — Republic of Uzbekistan: Selected Issues. Washington, D.C.: International Monetary Fund. URL: https://www.imf.org/-/media/files/publications/cr/2025/english/1uzbea2025002-print-pdf.pdf

13. IMF – International Monetary Fund (2026). Uzbekistan: Staff Concluding Statement of the 2026 Article IV Mission. URL: https://www.imf.org/en/news/articles/2026/04/13/mcs041326-uzbekistan

14. INVEXI (2025). Uzbekistan Unveils Ambitious 2025 Privatization Program to Boost Economy. URL: https://invexi.org/press/uzbekistan-unveils-ambitious-2025-privatization-program-to-boost-economy

15. Kornai, J. (1986). The Soft Budget Constraint. Kyklos, 39(1), 3–30. URL: https://onlinelibrary.wiley.com/doi/abs/10.1111/j.1467-6435.1986.tb01252.x

16. Lee, K. J. (2021). The Effects of Privatization and Corporate Governance of SOEs in Transition Economies: The Case of Kazakhstan. In: Reforming State-Owned Enterprises in Asia. ADB Institute Series. Singapore: Springer. https://doi.org/10.1007/978-981-15-8574-6_6

17. Lexology (2025). A general introduction to restructuring in Uzbekistan. URL: https://www.lexology.com/library/detail.aspx?g=271fd0d8-f6c2-4013-a10e-a2188a94a0c7

18. Megginson, W. L., & Netter, J. M. (2001). From State to Market: A Survey of Empirical Studies on Privatization. Journal of Economic Literature, 39(2), 321–389.

19. OECD (2003). Privatising State-Owned Enterprises: An Overview of Policies and Practices in OECD Countries. Paris: OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/9789264104099-en

20. OECD (2015). OECD Guidelines on Corporate Governance of State-Owned Enterprises. Paris: OECD Publishing. URL: https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2015/11/oecd-guidelines-on-corporate-governance-of-state-owned-enterprises-2015-edition_g1g5a749/9789264244160-en.pdf

21. OECD (2024). Ownership and Governance of State-Owned Enterprises 2024: A Compendium of National Practices. Paris: OECD Publishing. URL: https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2024/06/ownership-and-governance-of-state-owned-enterprises-2024

22. OECD (2024). OECD Review of the Corporate Governance of State-Owned Enterprises in Kazakhstan. Paris: OECD Publishing. URL: https://www.oecd.org/en/publications/oecd-review-of-the-corporate-governance-of-state-owned-enterprises-in-kazakhstan_082c508b-en.html

23. OECD (2025). Roadmap for Sustainable Investment Policy Reforms in Uzbekistan. Paris: OECD Publishing.

24. Outpost Eurasia (2024). The Powerhouses: State-Owned Enterprises in Central Asia. URL: https://outposteurasia.com/insights/tpost/zezl7ssya1-the-powerhouses-state-owned-enterprises

25. Primeminister.kz (2022). The Comprehensive Privatisation Plan 2021–2025 includes 675 public and quasi-public properties. Astana. URL: https://primeminister.kz/en/news/the-comprehensive-privatisation-plan-2021-2025

26. Samruk-Kazyna JSC (2023). Annual Report 2022. Astana. URL: https://sk.kz

27. U.S. Department of State (2025). 2025 Investment Climate Statements: Uzbekistan. Washington, D.C. URL: https://www.state.gov/reports/2025-investment-climate-statements/uzbekistan

28. UzSAMA – Davlat aktivlarini boshqarish agentligi (2024). Davlat aktivlarini boshqarish, xususiylashtirish va boshqa yo'nalishlar bo'yicha 2024-yilgi faoliyat hisoboti. Toshkent. URL: https://davaktiv.uz

29. World Bank (2014). Corporate Governance of State-Owned Enterprises: A Toolkit. Washington, D.C.: World Bank Group. URL: https://documents1.worldbank.org/curated/en/228331468169750340/pdf/Corporate-governance-of-state-owned-enterprises-a-toolkit.pdf

30. World Bank (2024). Helping Uzbekistan Undertake a Historic Social and Economic Transformation. Washington, D.C. URL: https://www.worldbank.org/en/results/2024/07/16/helping-uzbekistan-undertake-a-historic-social-and-economic-transformation

31. Yale Journal of International Affairs (2026). Fur, V. How Uzbekistan Can Escape the Middle-Income Trap. Vol. 20, Issue 2. URL: https://www.yalejournal.org/publications/how-uzbekistan-can-escape-the-middle-income-trap

32. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi (2024). "Davlat mulkini xususiylashtirish to'g'risida"gi Qonun, O'RQ-907-son, 14 fevral 2024 y.

33. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2020). "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmon, PF-6096-son, 27 oktyabr 2020 y. URL: https://lex.uz/uz/docs/-5068824

34. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti (2024). “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qaror, PQ-162-son, 19 aprel 2024 y. URL: https://lex.uz/uz/docs/-6898706

35. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti (2025). “2025-yilgi xususiylashtirish dasturi to‘g‘risida”gi Farmon, PF-70-son, 21-aprel 2025-y. URL: https://lex.uz/uz/docs/-7488166

36. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti (2025). “Yirik davlat ishtirokidagi korxonalarni xalqaro bozorlarda xususiylashtirish to‘g‘risida”gi Qaror, PQ-145-son, 21-aprel 2025-y. URL: https://lex.uz/uz/docs/-7488164

37. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi (2021). “2021 – 2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori, 166-son, 29-mart 2021-y. URL: https://lex.uz/uz/docs/-5348948

38. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti (2023). “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. URL: https://gov.uz/en/pages/2030_strategy

39. President.uz (2024) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 16-yanvar kuni 2024-yilda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash bo‘yicha ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishi. URL: https://president.uz/oz/lists/view/6971

40. Gazeta.uz (2025). Senate of Uzbekistan approves law on 2026 state budget. URL: https://www.gazeta.uz/en/2025/12/18/budget-2026-uzbekistan/

muhandislik
& iqtisodiyot
ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta’limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov
**Musahhih:** Zokir Alibekov
**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

**2026. № 5**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Muhandislik va iqtisodiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

“Muhandislik va iqtisodiyot” jurnali 26.06.2023-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami: №095310**.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**